

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar
fanlarning dolzarb
muammolari**

3-son (4- jild)

2024

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 3 (4) - 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2024

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймаҳамматович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллий Университети.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Ҳожаев Азизхон Саидалоҳонович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакарров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Саидова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, “Tashkent International University of Education” халқаро университети;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулув Жамолиддиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тиббиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудир;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёровна – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмуродович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич – юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Қаюмова Насиба Ашуровна – педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шохидат Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Муҳайё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибрахимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Василя Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбахор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психология кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Караматдиновна – психология фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

Содиқова Шоҳида Мархабобевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атақулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).

МУНДАРИЖА

07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

Hamroyev Asliddin Umed o'g'li

“GULSHANUL MULUK” (“SHOHLAR GULSHANI”) ASARI – MANG'ITLAR HUKMRONLIGI DAVRI MUARRIXLIGI NAMUNASI 13-18

Bazarbayeva Shohsanam Muratovna

SIRDARYO VILOYATIDA VETERINARIYA SOHASIGA OID ISLOHOTLAR (XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARI) 19-23

Asadova Dilnoza Innatovna

O'ZBEKISTONDA RAQS SAN'ATI SOHASIDA KADLAR TAYYORLASH MASALASI TARIXI VA BUGUNI 24-28

Ҳайитов Умед Яҳёевич

ЎЗБЕКИСТОН ССР МУВАҚҚАТ ИНҚИЛОБИЙ ҚЎМИТАСИ (МАРКАЗИЙ РЕВКОМ)НИНГ ТАШКИЛ ТОПИШИ ВА ФАОЛИЯТИ 29-34

Омонова Сарвиноз Ориф қизи

ЎЗБЕКИСТОНДА СОВЕТ ДАВРИДА ЖИСМОНИЙ ТАРБИЯ ВА СПОРТНИНГ ҲОЛАТИ... 35-42

08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

Алимханова Нигора Алимхановна

ТОВАР-МОДДИЙ ЗАХИРАЛАР АУДИТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ 43-52

Маҳмудова Дилафруз Hasanovna

KORPORATIV BOSHQARUVNING AYRIM NAZARIY JIHATLARI 53-60

Toxirov Akbarxon Toirxon o'g'li

SANOAT KORXONALARIDA IQTISODIY XAVFSIZLIKNING EKONOMETRIK MODELASHTIRISH 61-69

Меҳмоналиев Улугбек Эркинжон угли

СУЩНОСТЬ ОРГАНИЗАЦИИ СЛУЖБЫ ВНУТРЕННЕГО АУДИТА НА ПРЕДПРИЯТИЯХ . 70-75

Паязов Мурод Максудович

“ЎЗБЕКИСТОН ТЕМИР ЙЎЛЛАРИ” АЖДА ТРАНСФОРМАЦИЯЛАШ ЖАРАЁНЛАРИНИ АМАЛГА ОШИРИШ МЕТОДИКАСИ 76-86

Шадибекова Дилдор Абдурахмановна

ЛОГИСТИЧЕСКИЙ РЫНОК УЗБЕКИСТАНА И ПРОБЛЕМЫ ЕГО РАЗВИТИЯ 87-92

Malikova Dilrabo, Khudoiberdieva Maftunabonu

INNOVATIVE HR MANAGEMENT: NECESSITY AND METHODS OF APPLICATION 93-99

Мамажоновна Одинахон Алишер қизи

КОРХОНАЛАР БОШҚАРУВИДА ИННОВАЦИЯЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ ЖАРАЁНЛАРИНИНГ РИВОЖЛАНИШ ТЕНДЕНЦИЯЛАРИ 100-106

Nozimov Eldor Anvarovich

ELEKTRON TIJORATNI RIVOJLANISHDA O'ZBEKISTON VA HORIIY DAVLATLARNING O'RNI 107-115

Буранова Жазира Эргаш қизи

ВЛИЯНИЕ ЦИФРОВИЗАЦИИ ЭКОНОМИКИ НА ИНКЛЮЗИВНЫЙ РОСТ ГОСУДАРСТВА 116-120

<i>Худойназаров Фахритдин Хаитович</i> КИЧИК БИЗНЕС ВА ХУСУСИЙ ТАДБИРКОРЛИК ФАОЛИЯТИДА РАҚАМЛИ ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИНГ ИҚТИСОДИЙ АҲАМИЯТИ	121-127
<i>Бахтиёрлов Бобур Баходир ўғли</i> ТИЖОРАТ БАНКЛАРИ РЕСУРСЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ ВА БАНК ЛИКВИДЛИЛИГИНИ БОШҚАРИШНИНГ МЕТОДОЛОГИК АСОСЛАРИ	128-136
<i>Isomitdinova Gulbaxor Kurbonaliyevna</i> O'ZBEKISTON SHAROITIDA INVESTITSIYA RISKLARINI BOSHQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH	137-145
<i>Yuldashev Shadiyor Shuxrat o'g'li</i> OLIV TA'LIM O'QUV JARAYONLARIDA ZAMONAVIY VEB TEXNOLOGIYALARI INTEGRATSIYASI	146-150
<i>Baxtiyorov Asrorbek Azizjon o'g'li</i> TIJORAT BANKINING KREDIT SIYOSATI ASOSLARI, UNING IQTISODIY MOHIYATI	151-159
<i>Saidov Shohruh Mirzo</i> SOCIO-ECONOMIC ANALYSIS OF CONDITIONS OF DEVELOPMENT OF HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS	160-169
<i>Kunduzova Kumrixon Ibragimovna</i> IQTISODIY RIVOJLANISHNING HOZIRGI BOSQICHIDA XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLAR FAOLIYATIDAGI JORIY AKTIVLAR TUSHUNCHASI VA UNING O'RNI	170-177
<i>Inomjon Matkarimov</i> AGROKIMYO BIOKIMYO XIZMATLARI IJTIMOIV IQTISODIY SAMARADORLIGINI TA'MINLASHNING SWOT TAHLILI	178-183
09.00.00 – ФАЛСАФА ФАНЛАРИ	
<i>G'aybullayev Otabek Muxammadiyevich</i> JAMIYATDA ESTETIK MADANIYAT RIVOJLANISHINING FALSAFIY ASOSLARI	184-189
<i>Masharipova Gularam Kamilovna</i> MAHMUD IBN MUHAMMAD IBN UMAR AL-CHAG'MINIYNING «AL-MULAXXAS FI-L-HAY'A» RISOLASINING NUSXALARI VA QOZIZODA RUMIYNING SHARHI	190-198
<i>Абдуллаханова Гулбахор Саттаровна</i> ФИЛОСОФСКИЕ ВЗГЛЯДЫ ИБН СИНО И ИХ РОЛЬ В УКРЕПЛЕНИИ ДУХОВНО- ЦЕННОСТНЫХ ОСНОВ СОВРЕМЕННОГО РАЗВИТИЯ ЦИВИЛИЗАЦИИ	199-206
<i>Urinov Xushnudjon Abdulomitovich</i> TA'LIM VA KASB-HUNAR ISLOHOTLARI GENEZISI: KASBIY FAOLIYAT VA MEHNATGA MUNOSABATNING TARIXIY SHAKLLANISHI	207-220
<i>Азизкулов Акрам Абдурахмонович</i> ШАРҚШУНОС УИЛЬЯМ ЭРСКИН ТАДҚИҚОТЛАРИДА БОБУРИЙЛАР СУЛОЛАСИ ТАРИХИНИНГ ЁРИТИЛИШИ	221-227
<i>Kenjayev Ulug'bek Muratovich</i> BEFARQLIK HAQIDAGI FALSAFIY FIKRLAR RIVOJI	228-232
<i>G'aybullayeva Laylo Safarboyevna</i> MAHALLADA YOSHLAR SIYOSIY FAOLLIGINI OSHIRISHDA IJTIMOIV-FALSAFIY RIVOJLANISH MASALALARI	233-238

<i>Хо'janova Tamara Jo'raevna</i> YOSHLAR MA'NAVİYATIGA TAHDID VA ULARDAN O'ZINI ONGLI HIMOYA QILISH KO'NIKMALARI	239-245
<i>Jabborova Saodat Sattorovna</i> MA'NAVİY SALOHİYATNING IJTIMOİY TARAQQIYOT MANBAI SIFATIDA XUSUSIYATLARI	246-252
<i>Xusanov G'olib Elmurodovich</i> O'ZBEK OILALARINING RIVOJLANISHIDA AXLOQIY TAFAKKUR MASALALARI	253-257
<i>Агзамходжаева Шахноза Саидматмабевна</i> МУСУЛЬМАНСКОЕ БОГОСЛОВИЕ, СВЯЩЕННЫЙ КОРАН И ТВОРЧЕСТВО НАВОИ В КОНТЕКСТЕ ФИЛОСОФСКОЙ КОМПАРАТИВИСТИКИ	258-265
<i>O'razov Bobir Baxtiyorovich</i> IJTIMOIY DAVLATNING NAZARIY VA METODOLOGIK ASOSLARI: VUJUDGA KELISH SHARTLARI, BELGILARI VA FUNKSIYALARI	266-270
<i>Qunishev Ulug'bek Ulashevich</i> NEMIS KLASSIK FALSAFASIDA JAMIYAT RIVOJLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI AXLOQIY VA ESTETIK OMILLAR	271-275
<i>Турдибоев Бозор Худойбердиевич</i> ЦИВИЛИЗАЦИЯЛАР ТАРИХИЙ ЯХЛИТЛИК НАМОЁН БЎЛИШ ШАКЛЛАРИ СИФАТИДА	276-282
<i>Kenjayeva Dilrabo Rominovna</i> MARKAZIY OSIYO MUTAFAKKIRLARI TA'LIMOTIDA O'ZLIKNI ANGLASH TUSHUNCHASI VA UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	283-287
<i>Azamatova Gulrukh Islom qizi</i> SOCIOCULTURAL ASPECTS IN KARL POPPER'S PHILOSOPHY IN THE CONTEXT OF MODERN EDUCATION	288-293
<i>Тошпулатова Ширин Мухиддиновна</i> ЭТИЧЕСКИЕ ОРИЕНТИРЫ ГОСУДАРСТВЕННОЙ ГРАЖДАНСКОЙ СЛУЖБЫ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	294-302
<i>Yuldasheva Dilorom Yuldashevna</i> SCIENTIFIC ATTITUDE TO CONSCIOUSNESS AND ITS INFLUENCE ON THE FIELD OF EDUCATION	303-307
<i>Bekchanov Xudoybergan O'rinovich, Yusupova Firuza Hajiboy qizi, Yuliyeva Sohiba Shuhrat qizi</i> МАКТАВГАЧНА YOSHDAGI КАТТА GURUH TARBIYALANUVCHILARDA IJTIMOİY VA KOMMUNIKATIV QOBILYATNING RIVOJLANISHI	308-314
10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ	
<i>Ткебучава Ирина Георгиевна</i> ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ ФОРМИРОВАНИЯ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ ПРИ ОБУЧЕНИИ ИНОСТРАННОМУ ЯЗЫКУ	315-320
<i>Ikromxonova Firuza Ikromovna, Jazira Nursultanqizi</i> TIPOLOGIK TAHLIL - KOMPOZITSIYA VA JANR (TARIXIY ASARLAR MISOLIDA)	321-327

<i>Ashurova Maftuna Asqar qizi</i> LINGUACULTURAL PECULIARITIES OF THE CONCEPT “HAPPINESS” IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES	328-334
<i>Mustafayeva Saodat Burxanovna</i> SALIM ASHUR SHE’RLARIDA LINGVOMADANIY BIRLIKLAR VOSITASIDA VOQELIKNI BADIY TALQIN ETISH	335-340
<i>Abdulxayeva Nodirabegim Ixtiyorjon qizi</i> DRAMATIK ASARLARNI TARJIMA QILISHDA LEKSIK-SEMANTIK, LINGVOKULTUROLOGIK MASALALAR	341-346
<i>Xajiyeva Dilfuza Adambayevna</i> FOLKLOR VOSITALARINING ZAMONAVIY ADABIYOTDAGI O’RNI VA O’RGANILISHI	347-351
<i>Jumanova Sevara Xolmurod qizi</i> KIYIM KECHAK NOMLARI TILNING BOYISH MANBAI SIFATIDA	352-356
<i>Hojaliyev Ismail Tadjibayevich, Ismailova Sayyora Tolkinovna</i> MATN NAZARIYASINING SHAKLLANISHI	357-366
<i>Abdullaev Ulmasbek Khairullayevich</i> LITERARY WORKS AS THE MOST IMPORTANT AND WELL-ACCLAIMED COMPONENTS OF THE CULTURAL HERITAGE OF THE NATION	367-370
<i>Maxmudova Fotima Maqsud qizi</i> TYPES OF MEDIA TEXT LANGUAGE	371-375
<i>Maxmudova Zuhra Maqsud qizi</i> BADIY TARJIMANING TILSHUNOSLIKDAGI AHAMIYATI	376-380
<i>Davronova Zulfiya Boboyevna</i> UZBEK- FRENCH RELATIONS AS A BINDING PART OF INTERNATIONAL CULTURAL AND HISTORICAL EXPERIENCE	381-386
<i>Hakimova Dilrabo Yo’ldoshovna</i> TERMINOLOGIYA SOHASINING TARIXI VA DOLZARB MUAMMOLARI XUSUSIDA	387-392
<i>Мадрахимов Тулибай Абдукаримович</i> СЎЗЛАШУВ НУТҚИНИНГ ТИЛ ФУНКЦИОНАЛ ВАРИАНТЛАРИ ОРАСИДА ТУТГАН ЎРНИ	393-395
12.00.00 – ЮРИДИК ФАНЛАР	
<i>Ergashev Ikrom Abdurasulovich</i> SOLIQ INTIZOMINI BUZISH BILAN BOG’LIQ HUQUQBUZARLIKLAR UCHUN JAVOBGARLIKNING AYRIM JIHATLARINING ILMIY-NAZARIY TAHLILI	396-402
<i>Куатбек Гулнар Куатбековна</i> ВОПРОСЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ МЕЖДУНАРОДНЫХ СТАНДАРТОВ ТРАНСПАРЕНТНОСТИ ПРЕДСТАВИТЕЛЬНЫХ ОРГАНОВ МЕСТНОЙ ВЛАСТИ	403-409
<i>Jurayev Dilmurot Mukhtarovich</i> ANALYSIS OF THE LEGISLATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN ON ALTERNATIVE RESOLUTION OF DISPUTES ARISING FROM ADMINISTRATIVE AND PUBLIC LEGAL RELATIONS	410-415

<i>Mirakhmedova Fazilat Khokim kizi</i> CRIMES OF MANUFACTURING AND SELLING PHARMACEUTICALS IN A WAY TO DANGER THE LIVES AND HEALTH OF INDIVIDUALS (Evaluation of Türkiye and Uzbekistan legal system)	416-428
<i>Касимов Нодиржон Содикжонович</i> ҚАСДДАН ОДАМ ЎЛДИРИШ ЖИНОЯТЛАРИНИНГ УМУМИЙ ВИКТИМОЛОГИК ПРОФИЛАКТИКАСИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ	429-438
<i>Кутыбаева Елизавета Дуйсенбаевна, Есенбаев Джанибек Таирович</i> ЭКОЛОГИК ТУСДАГИ ФАВҚУЛОДДА ВАЗИЯТЛАРДАН МУҲОФАЗА ҚИЛИШНИНГ ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ	439-445
<i>Джалилов Сардор Шавкатович</i> ҲУҚУҚ МАНБАЛАРИ ВА НОГИРОНЛИГИ БЎЛГАН ШАХСЛАРНИНГ ҲУҚУҚЛАРИНИ КОДИФИКАЦИЯ ҚИЛИШ ЖАРАЁНИ	446-453
13.00.00 - ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ	
<i>Mirzayev Qodir Toirovich</i> ZAMONAVIY XOR SAN'ATI TA'LIMINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	454-458
<i>Васильченко Ольга Анатольевна</i> ИСТОРИЯ И МЕТОДОЛОГИЯ РАЗВИТИЯ ВОКАЛЬНО-ХОРОВОГО ИСКУССТВА В УЗБЕКИСТАНЕ	459-463
<i>Эрназаров Алишер Эргашевич, Бекмурадов Зариф Хуррамович</i> ЎҚУВ МАШҒУЛОТЛАРИНИНГ МОДУЛЛИ ВА ЛОЙИХАЛАШТИРИЛГАН ТУРЛАРИ ҲАМДА АХБОРОТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ	464-470
<i>Mattiyeva Feruza Begmatdulobovna</i> TARJIMONLIK MALAKASINI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLINGVISTIK VA DIDAKTIK XUSUSIYATLARI	471-477
<i>Jurayev Bobomurod Tojiyevich</i> ABU ALI IBN SINO QARASHLARIDA TA'LIM-TARBIYA MASALALARI	478-482
<i>Umurova Ma'rifat Yoshiyevna</i> XALQ QO'SHIQLARI VATANPARVARLIK TUYG'USINI RIVOJLANTIRISH VOSITASI SIFATIDA	483-486
<i>Raxmanova Dildora Abdulxamid qizi</i> INGLIZ TILIDA AKADEMIK YOZUV TUSHUNCHASI VA UNING TALABALAR ILMIY FAOLIYATIDAGI AHAMIYATI	487-492
<i>Rajabiy Aziz Xasanovich</i> VOKAL ARTISTI FAOLIYATIDA SAHNA MAHORATINING O'RNI	493-497
<i>Omanov Rashid Sherqobilovich</i> O'QUVCHILARDA EKOLOGIK TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISH JARAYONLARINI TO'G'RI TASHKIL ETISH	498-501
<i>Салимов Ақром Хайитович</i> БЎЛАЖАК ЎҚИТУВЧИЛАРДА ОИЛА, МАҲАЛЛА ВА МАКТАБ ҲАМКОРЛИГИНИ АМАЛГА ОШИРИШНИНГ АФЗАЛЛИКЛАРИ	502-507
<i>Mamatmurodov Sharofjon Khudoyarovich</i> TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING O'RNI.....	508-514

<i>Ли Екатерина Владимировна</i> СИНЕРГЕТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ИННОВАЦИЙ И ИННОВАЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ	515-523
<i>Ахмедова Нафиса Исаходжаевна, Азаматов Абдулло Исахўжа ўғли, Лутфуллина Румия Анваровна</i> ЁШ ТЕННИСЧИЛАРНИНГ ЖИСМОНИЙ ТАЙЁРГАРЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА ҲАРАКАТЛИ ЎЙИНЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ	524-533
<i>Очилова Мехрибон Суратовна, Хамроева Феруза Асроровна</i> АНАЛИЗ СОВРЕМЕННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ПЛАТФОРМ И ИХ КЛАССИФИКАЦИЯ	534-541
<i>Амонов Mirjon Namozovich</i> IJTIMOIY PEDAGOGIK FAOLIYAT VA UNING ASOSIY FUNKSIYALARI	542-547
<i>Sharipov Habibullo Abduqahhorovich</i> TALABALARNING IJODKORLIGINI RIVOJLANTIRISHDA MUSTAQIL TA'LIMNING O'RNI VA AHAMIYATI	548-552
<i>Yaxiyaxonova Muxiba Maxmudjonovna</i> RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING IT SAVODXONLIGINI OSHIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH	553-560
<i>Hakimova Gulshan Abdusalilovna</i> JISMONIY TARBIYA VOSITALARI ORQALI YOSH BOLALARNI SIFATLARINI TARBIYALASH	561-565
<i>Nazarov Rustam Irkinovich</i> TECHNOLOGY FOR DEVELOPING COMMUNICATIVE COMPETENCE OF STUDENTS IN HIGHER TECHNICAL EDUCATION FIELDS (IN THE EXAMPLE OF ENGLISH LANGUAGE)	566-570
<i>Muqimova Fotima Abduqaxor qizi, Muqimova Zuxra Abduqahor qizi</i> CHIZMACHILIK DARSLARIDA O'QUVCHILARNING GRAFIK SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISHDA O'YINLI TEXNOLOGIYALADAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI	571-576
<i>Sulaymanova Dildora Nazarovna, Giyasova Shaxnoza Abdurafikovna</i> BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING KREATIV TAFAKKURINI LOYIHAGA ASOSLANGAN O'QITISH VOSITASIDA RIVOJLANTIRISH MODELI	577-585
<i>Usmonova Matluba Nosirovna</i> O'QUVCHILARDA MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLARNI TARBIYALASH METODIKASINING KREATIV PEDAGOGIK YONDASHUVI	586-590
<i>Ustaev Abdurazzoq Qurbonovich</i> MILLIY KURASH SPORT TURINING FUNKSIYALARI VA MAQSADGA ERISHISHDAGI VOSITALARI	591-596
<i>Shoimqulova Nigina Xolmurodovna, Yadigarova Sitara Bahromovna</i> ADDRESSING CHALLENGES IN TEACHING ENGLISH IN CENTRAL ASIAN COUNTRIES: A SCHOLARLY EXAMINATION	597-603
<i>Yeshanov Marat Urazaliyevich</i> INGLIZ TILINI O'QITISHDA BO'LAJAK CHET TILI O'QITUVCHILARINING KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI TAKOMILLASHTIRISHDA PRAGMATIKANING AHAMIYATI LANGUAGE]	604-616

Tursunova Shahnoza Bekchanovna

JAMOATCHILIK FIKRINI SHAKLLANTIRISHDA JAMOATCHILIK BILAN ALOQALARNING
O'RNATISH 617-622

Atoyeva Gulshoda Rabimovna

OILADAGI ZO'RAVONLIKNING O'SMIR XULQIGA PSIXOLOGIK TA'SIRI 623-628

Musinova Ruxshona Yunusovna, Qurbonova Aziza Davlat qizi

JABRLANUVCHI SINDROMI, UNING ASOSIY SABABLARI VA BELGILARI 629-635

Jamolova Mokhigul Bakhtiorovna

METHODS OF DEVELOPING THE CRITICAL THINKING ABILITY OF PRIMARY CLASS
STUDENTS THROUGH FAIRY TALES 636-641

Mahmudova Dilafruz Hasanovna
TDTrU, "Tabiiy fanlar" kafedrasasi assistenti
dilafruztayi@gmail.com

KORPORATIV BOSHQARUVNING AYRIM NAZARIY JIHATLARI

Annotatsiya. Maqolada korporativ boshqaruvning paydo bo'lishi va rivojlanishi, mamlakatimizda korporativ boshqaruvning me'yoriy-huquqiy asoslari atroflicha yoritib berilgan. Shuningdek, boshqarish samaradorligi nazariy jihatdan o'rganilgan, mavzu doirasida xulosa va takliflar shakllantirilgan.

Kalit so'zlar: korporatsiya, menejer, korporativ boshqaruv, samara, samaradorlik, boshqaruv mexanizmi, korporativ boshqaruv samaradorligi.

Mahmudova Dilafruz Hasanovna
TDTrU, assistant of the "Natural Sciences" department

SOME THEORETICAL ASPECTS OF CORPORATE MANAGEMENT

Abstract. The article describes the emergence and development of corporate governance, the regulatory and legal basis of corporate governance in our country. Also, management effectiveness was studied theoretically, conclusions and suggestions were formed within the topic.

Key words: corporation, manager, corporate governance, effectiveness, efficiency, management mechanism, corporate governance effectiveness.

Махмудова Дилафруз Хасановна
ТДТрУ, ассистент кафедры «Естественные науки»

НЕКОТОРЫЕ ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ

Аннотация. В статье описано возникновение и развитие корпоративного управления, нормативно-правовая основа корпоративного управления в нашей стране. Также теоретически изучена эффективность управления, в рамках темы сформированы выводы и предложения.

Ключевые слова: корпорация, менеджер, корпоративное управление, эффективность, результативность, механизм управления, результативность корпоративного управления.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI1Y2024N07>

Kirish. Jahondagi iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlar amaliyotida korporativ boshqaruvni nazariy-uslubiy jihatdan tadqiq etish, korporatsiyalarni boshqarishda strategiyalarni tanlash, kompaniyalarda korporativ boshqaruv muammolarini kompleks o'rganish bo'yicha ilmiy izlanishlar amalga oshirib kelinmoqda. Ayniqsa, transport tarmog'ida korporativ boshqaruvni samarali tashkil etish korporativ tuzilmalarni kengaytirish borasidagi barqaror tendensiyalarning muhim yo'nalishlaridan biriga aylanib bormoqda. Transport tarmog'ida xo'jalik munosabatlari tizimini yangilash menejment modellarini optimallashtirish, insoniyat tomonidan to'plangan barcha tashkiliy va boshqaruv tajribalaridan oqilona foydalangan holda korporativ boshqaruv usulini joriy etishni taqozo etadi.

2017-2021 yillarda O'zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida «transport-kommunikatsiya, ijtimoiy infratuzilma loyihalarini amalga oshirish bo'yicha faol investitsiya siyosatini qo'llash»; «...erkin iqtisodiy zonalar samaradorligini oshirish»; «...yo'l-transport infratuzilmasini yanada rivojlantirish» [1] kabi ustuvor vazifalar belgilangan. Mazkur vazifalarning samarali bajarilishi respublikada Temir yo'l transporti kommunikatsiyalarini rivojlantirish uchun jalb etiladigan investitsion resurslarni samarali boshqarish usulini takomillashtirishni talab etadi.

Korporativ boshqaruvning paydo bo'lishi va rivojlanishi iqtisodiyot evolyusiyasi qonuniyatini o'zida aks ettiradi. Bu boshqaruv shakli tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish shakl va tamoyillariga yangi talablar qo'yilishi, tadbirkorlik birlashmalarini tashkil etishga yondashuvlarning rivojlanishi bilan vujudga kelgan.

Korporativ boshqaruv tarixining yana bir bosqichi sifatida mustaqil yuridik shaxslar va monopoliyalari ko'rinishidagi xo'jalik birlashmalarini tashkil etish hisoblanadi. Bu ko'rinishdagi birinchi birlashma 1882 yilda Jon R.Rokfeller tomonidan bir necha neft korporatsiyalarini qo'shish yo'li bilan tashkil etilgan «Standart Oyl» kompaniyasi bo'ldi [2]. Yuqorida keltirilgan shaxs va tahlillardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, korporativ boshqaruvning paydo bo'lishi va rivojlanishi uyushmalar, shirkatlar, korporatsiyalar va aksiyadorlik jamiyatlari boshqaruvi bilan bog'liqdir.

Hozirgi vaqtda rivojlangan mamlakatlarda korporativ “xatti-harakat” olib boruvchi asosiy shaxslar (aksiyadorlar, menejerlar, direktorlar, kreditorlar, xodimlar, mol yetkazib beruvchilar, xaridorlar, davlat boshqaruv organlari xodimlari, mahalliy aholi, jamoat tashkilotlari a'zolari) orasidagi munosabatlar tizimi asoslari aniq belgilab berilgan. Bunday tizim har qanday korporatsiya oldida turuvchi uchta asosiy vazifani hal etish uchun yaratilgan[3]:

- uning maksimal samaradorligini ta'minlash;
- investitsiyalarni jalb etish;
- yuridik va ijtimoiy majburiyatlarni bajarish.

AQShda korporativ munosabatlar tizimi korporativ boshqaruvdan va xususiy mulkchilikdan foydalanish jarayoni sifatida birinchi marta 1932 yilda professor Adolf BerleDj. va iqtisodchi Gardiner Mianslarning «The modern Corporation and Private Property» nomli klassik ishida ko'rib chiqilgan[4]. Ular zamonaviy korporatsiyalarda o'sib boruvchi iqtisodiy ta'sir(kuch)ning konsentratsiyalashuvini tadqiq etib, yirik korporatsiyalarda aksiyalarga ega bo'lmagan yoki minoritar hisoblanuvchi professional menejerlar qo'lida operatsion nazoratning kuchayib borishini ko'rsatib berganlar. Shuningdek, ular sonining nihoyatda ko'p bo'lishiga qaramay nisbatan kam manfaatdor bo'lishadigan, korporatsiya ustidan nazorat o'rnata olmaydigan korporativ aksiyalarning barcha xususiy mulk egalari o'sib boruvchi miqdori orasida birmuncha yuqori tarqoqligini aniqlashdi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Korporativ menejerlar, investorlar, advokatlar va siyosatchilar birmuncha tor ta'rifni qo'llashga moyil bo'lib, ular uchun korporativ boshqaruv korporatsiya asosiy qatnashchi(aksiyador)lari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda sodir bo'ladigan korporatsiyaning rivojlanish yo'nalishi va nazoratini aniqlovchi tartib-qoidalar va institutlar tizimidir. Bu borada 1992 yildagi Cadbury ma'ruzasida quyidagi ta'rifni topish mumkin: “Korporativ boshqaruv uning yordamida biznesning boshqarilishi va nazorat qilinishidir” [5]. Umuman, ushbu talqinning o'zi tor doirani qamrab olgan, ya'ni u faqatgina korporatsiyalarda qaror qabul qilish jarayoni va ichki tuzilmalarni izohlaydi.

1999 yil aprelda Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti (IHRT) tomonidan tasdiqlangan maxsus hujjatda korporativ boshqaruvning quyidagi talqini shakllantirilgan: “Korporativ boshqaruv korporatsiya faoliyatini va uni nazorat qilishni ta'minlovchi ...ichki vositalarga taalluqli. Iqtisodiy samaradorlikni oshirishning eng muhim elementlaridan biri korporativ boshqaruv hisoblanadi. U o'z ichiga kompaniya boshqaruvi(menejment, ma'muriyat), uning direktorlar kengashi(kuzatuv kengashi), aksiyadorlari va boshqa

manfaatdor shaxslari(Stakeholders)[6] orasidagi o'zaro kompleks munosabatlarni oladi". Qoidaga ko'ra korporativ boshqaruv uchta asosiy manfaatdor tomon-aksiyadorlar, direktorlar kengashi va top-menejerlarning o'zaro xatti-harakatlarini o'zida namoyon etadi.

Korporatsiya zamonaviy iqtisodiyotning muhim instituti bo'lib, rivojlangan mamlakatlarda korporatsiya hokimiyat tizimining ajralmas qismi hisoblanadi. Van Xorn talqini bo'yicha korporatsiya-bu qonun bilan yaratilgan korxonaning ta'riflanishi; u mol-mulkka ega bo'lishi va o'ziga majburiyatni olishi mumkin [7].

S.Ross ushbu tushunchaga quyidagicha ta'rif beradi: "Korporatsiya biznesning alohida yuridik shaxs sifatida xususiy va yuridik shaxslardan bitta yoki ko'prog'idan tashkil topishga asoslangan turidir" [8].

Korporativ boshqaruv tushunchasiga xorijiy va mahalliy adabiyotlarda turli yondashuvlar mavjud. Masalan, amerikalik tadqiqotchilar Sh.Paffer va D.Makkarti korporativ boshqaruvga quyidagicha ta'rif berganlar. "Korporativ boshqaruv xamma o'zicha tushunadigan shunday atamalardan biri, lekin, yaxshi korporativ boshqaruv menejerlar, direktorlar kengashi a'zolari va aksiyadorlardan hush axloqli bo'lishni talab qiladi degan fikrga hamma qo'shilishadi" [9].

Rossiyalik iqtisodchi olimlar korporativ boshqaruv tushunchasiga turlicha yondashganlar, ularning ta'rifi ko'proq iqtisodiy va huquqiy jihatdan aks ettirilgan. Masalan, mualliflar V.Yu.Bashkinsas, D.I.Delov, S.A.Karemna korporativ boshqaruvni kompaniya egalari tomonidan qo'yilgan kapitallarning qaytarilishini kafolatlovchi usullar tizimi sifatida talqin qiladilar [10].

S.Karnauxov korporativ boshqaruvni muayyan doiradagi sinergetik samarani boshqarish sifatida ta'riflangan korporativ boshqaruv, deb ta'riflaydi[11]. Rus olimi S.A.Masyutinning fikricha: "Korporativ boshqaruv korxonalar menejerlari va egalari o'rtasida korxonalar faoliyati samaradorligini ta'minlash hamda mulkdorlar va boshqa ishtirokchilar manfaatlarini himoya qilishga oid munosabatlar tizimidir" [12].

Bu yerda ham samaradorlikni qanday ta'minlash kerakligi, mablag'ning adolatli taqsimoti ko'rsatilmagan.

I.I.Mazur va bir qator olimlar guruhi bergan e'tiborga loyiq ta'riflardan biri "Korporativ boshqarish aksiyadorlar hamda xodimlar, mijozlar va ta'minotchilar kabi boshqa manfaatdor tomonidan manfaatlari yo'lida qat'iy faoliyat yurituvchi korporatsiyani boshqarish, uni nazorat qilishni ta'minlaydigan qoidalar to'plami madaniyatini bildiradi" [13], - deb hisoblaydilar.

Korporativ boshqaruv borasida tadqiqot olib borgan bir qator O'zbekiston olimlari ham "korporativ boshqaruv" tushunchasiga o'z fikr-mulohazalarini bildirganlar. Bu borada iqtisod fanlari doktori, professor Sh.G'.Yuldashev shunday fikr bildirgan: "Korporativ boshqaruv kompaniya faoliyati samaradorligini ta'minlash va mulkdorlar, hamda boshqa manfaatdor shaxslar (kompaniya, xodimlari, kreditorlar, hamkor korxonalar manfaatlarini himoya qilish masalalari bo'yicha kompaniya menejerlari va egalari (aksiyadorlari) o'rtasidagi o'zaro munosabatlar tizimi..." [14].

Muallif M.B. Xamidulinning korporativ boshqaruv tushunchasiga shunday izohlangan "Korporatsiya murakkab organizm bo'lib, korporativ munosabatlarning ko'plab ishtirokchilarini birlashtiradi, ularning manfaatlari korporatsiya ichida ham, undan tashqarida ham uzviy bog'langandir" [15].

Iqtisodchi olimlar Sh.N.Zaynutdinov va D.N.Raximovanning fikricha, "Korporativ boshqaruv – manfaatdor shaxslarning daromad olish maqsadida birgalikdagi harakatlaridir" [16].

Ushbu ta'rifda korporativ boshqaruvning barcha elementlari, maqsadlari to'liq qamrab olinmagan. Jumladan, korxonaning manfaati, foyda olishga qaratilgan tadbirlar nazarda tutilmagan.

Boshqa mualliflarning fikricha: "korporativ boshqaruv tashkilot faoliyati samaradorligini ta'minlash yo'lida aksiyadorlar hamda boshqa tegishli shaxslar (xodimlar

kreditorlar, hamkor korxonalar) manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan korporativ munosabatlar tizimidir” [17].

Yuqoridagilardan tashqari o‘zbekistonlik iqtisodchi olimlardan A.A.Xoshimov, A.A.Zohidov, M.M.Voxidovlar o‘z tadqiqotlarida korporativ boshqaruv tushunchasiga o‘z ta’riflarini berib o‘tganlar.

"Korporativ boshqaruv" tushunchasining deyarli barcha ta’riflari quyidagi nazariy qoidalarga asoslangan. Birinchidan, korporativ boshqaruv predmeti mulkdorlar (aksiyadorlar) va boshqaruvchilar, shuningdek aksiyadorlik jamiyatining faoliyatiga jalb etilgan boshqa shaxslar o‘rtasidagi aksiyadorlik kapitalini oshirishdan iborat.

Korporativ boshqaruvning maqsadi - amaldagi qonun hujjatlari doirasida aksiyadorlik jamiyatining barcha turdagi faoliyatidan hamma aloqador shaxslar o‘rtasida manfaatlar muvozanatini saqlagan holda mumkin qadar ko‘p foyda olishdan iborat.

Shunday qilib, korporativ boshqaruvga berilgan tariflardan so‘ng korporatsiyani boshqarish bilan shaxsiy boshqaruvni farqlab olish lozim. Iqtisodiy adabiyotlarda, birinchi tushuncha biznesni professional mutaxassislar, ya’ni menejerlar boshqaruvi faoliyati bilan bog‘liq bo‘lsa, ikkinchi tushuncha korxonaning xo‘jalik faoliyati jarayonida mulkdorlar, menejerlar va boshqa shaxslar - korxonalar bilan yuzaga keladigan har xil o‘zaro munosabatlarni o‘z ichiga oladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur maqolada ilmiy-nazariy asos sifatida korporativ boshqaruvga oid iqtisodiy adabiyotlar hamda ilmiy maqolalar, xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlarning iqtisodiyotni rivojlantirishda uning ahamiyatiga oid ilmiy asarlari o‘rganilgan. Mavzuni o‘rganish davomida adabiyotlar qiyosiy tahlili, mantiqiy va tarkibiy tahlil qilish, guruhlashtirish va qiyosiy taqqoslash usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Korporativ boshqaruv muammosi paydo bo‘lishining asosiy iqtisodiy sababi - mulkka egalik qilishning mulkni bevosita boshqarishdan ajratib qo‘yilishidir. Bunday ajratish natijasida korxonalar faoliyatini bevosita boshqarayotgan yollanma rahbarlar(menejerlar)ning roli muqarrar ravishda oshib ketadi, buning oqibatida boshqaruv munosabatlari ishtirokchilarning turli guruhlarida paydo bo‘ladiki, ularning har biri o‘z manfaatlarinigina ko‘zlaydi.

Yuqoridagi bayon etilganlardan kelib chiqib biz ham korporativ boshqaruv tushunchasiga o‘z fikrimizni bildirdik. "Korporativ boshqaruv barcha manfaatdor tomonlar manfaatlarining muvozanatiga rioya qilgan holda imkon qadar yuqoriroq foyda olishga qaratilgan tizimdir". Shuningdek, korporativ boshqaruv shunday jarayonki, unga muvofiq kompaniya aksiyadorlar manfaatlariga vakillik qilishi va ularning himoyasini ta’minlashi zarur.

Iqtisodiy adabiyotlarda "mexanizm" tushunchasi ko‘p holatlarni aks ettiradi. Iqtisodiy lug‘atda "mexanizm" tushunchasi "o‘zida ma’lum xatti-harakatni, hodisani aniqlovchi holatlar davomiyligi", yoki "ma’lum turdagi faoliyat tartibini aniqlovchi, qurilma, tizim" sifatida bayon etiladi" [18]. Shundan kelib chiqib, mexanizm va u bilan bog‘liq tushunchalarning iqtisodiyotdagi turlari ham ko‘p. Masalan, tashkiliy mexanizm, iqtisodiy mexanizm, texnologik mexanizm, ijtimoiy mexanizm, moliyaviy mexanizm, innovatsion mexanizm, investitsion mexanizm, infratuzilma mexanizmi, boshqaruv mexanizmi, mulkchilik mexanizmi va hokazo.

Korporativ boshqaruvni tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi murakkab boshqaruv tizimi bo‘lib, asosan tashkiliy va iqtisodiy elementlar yig‘indisidan shakllanadi. Avvalambor, tashkiliy mexanizm mulkchilik shakllari, personal va korporativ boshqaruvning tashkiliy tuzilma turlari bilan belgilanadi.

Korporativlash asosini xususiy mulk tashkil etadi. Uning xususiyati shundan iboratki, u nafaqat xususiy mulkni ifodalaydi, balki u teng egalikni, xususiy va ijtimoiy mulk egaligini o‘zida mujassamlashtiradi. Korporativ mulkchilikda bo‘lgan tenglik alomati xususiy va ijtimoiy egalik munosabatlarini ifodalaydi.

Korporativ boshqaruvning iqtisodiy mexanizmi murakkab tizimdir. Bu makro va mikro darajadagi ko‘rsatkichlar majmui bo‘lib, tashqi holat bilan uzviy aloqa o‘rnatib, harakatda

bo'lishi kerak. Kompaniyalarda iqtisodiy vositalar asosida korporativ usul va uslubiyatlar qo'llanilib, boshqaruv tartibga solinadi.

Korporativ boshqaruvning iqtisodiy mexanizmi iqtisodiy vositalarni to'g'ri tanlash, ularni bir tizimga keltirish, kompaniyalar resurslaridan to'g'ri foydalanish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga olib keladi. Aytib o'tish joizki, ushbu mexanizm turlari iqtisodiy adabiyotlarda to'laligicha o'rganilmagan. Ushbu mexanizmlarni, fikrimizcha, boshqaruv mexanizmi umumlashtirib turadi.

Umuman, bu mexanizmlar o'zaro bog'liq va ularni o'rganishda kompleks yondashuv zarur. Menejment mexanizmi va korporativ boshqaruv mexanizmi to'g'risidagi tushunchalarga to'xtalib aytib o'tish lozimki, menejment mexanizmi iqtisodiyotni tartibga keltirish va uning samaradorligini oshirishda foydalanuvchi qonunlar, tamoyillar, usullar, uslublar, vazifalar, normativ va huquqiy hujjatlar tushuniladi. Korporativ boshqaruv mexanizmi qonun va tamoyillardan tashqari tashqi hamda ichki munosabatlar va korporativ kodeksga bog'liq bo'ladi. Bundan tashqari, mazmun jihatdan, korporativ boshqaruv mexanizmi korxonalar rahbariyati ustidan uning mulkdorlari tomonidan nazorat qilish usullaridan foydalaniladi.

Korporativ boshqaruv adabiyotlarda "Korporativ mexanizm" tushunchasiga oid ta'riflar yetarli darajada o'rganilgan. Ularni umumlashtirilgan holatda quyidagi xulosaga keldik: "Korporativ boshqaruv mexanizmi kompaniya (yoki korporatsiya) ning o'z oldiga qo'yilgan maqsadlarga erishish uchun zarur ijtimoiy, iqtisodiy va tashkiliy-huquqiy munosabatlarni harakatga keltiruvchi elementlar yig'indisidir".

Buning uchun qanday mexanizmlar korporativ boshqaruv bilan bog'liqligini aniqlab olish lozim bo'. Birinchidan, "korporativ boshqaruv mexanizmi", "korporativ boshqaruvning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi", "korporativ boshqaruvning tashkiliy-huquqiy mexanizmi", "korporativ boshqaruvning ijtimoiy-texnologik mexanizmi" kabi tushunchalarni kiritish mumkin. Umuman, avvalambor, "boshqaruv mexanizmi" tushunchasi nimani anglatadi? Boshqaruv mexanizmi boshqarish faoliyatini amalga oshirish uchun foydalaniladigan qonunlar, tamoyillar, vazifalar, texnologiyalar, axborotlar, modellar majmuidir.

Fikrimizcha, ushbu tushuncha juda keng talqin qilingan. Chunki yuqorida aytib o'tilganidek, korporativ boshqaruv mexanizmi bir necha turlarga bo'linadi. Buni aniqlashtirish maqsadida biz o'z ishimizda boshqa shakllarga bo'lib o'rganishni taklif etdik. Bu esa, korporativ boshqaruv fanida bir yangi yo'nalish bo'lib, "korporativ boshqaruvning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi" mohiyatini yanada kengaytirishi mumkin.

Korporativ boshqaruvning me'yor va qoidalari – davlat tomonidan ishlab chiqarilib, aksoyadorlik jamiyatlar faoliyatini tartibga soladi.

Ularga aksiyadorlik jamiyatlari to'g'risida qonunlar, qimmatli qog'ozlar haqidagi qonunchilik, aksiyadorlar huquqlarini va investitsiyalarini himoya qilish qonunlari, bankrotlik, soliq qonunchiligi va boshqalar kiradi.

2-jadval

Mamlakatimizda korporativ boshqaruvning me'yoriy-huquqiy asoslari quyidagilardan iborat:

1.	O'zbekiston Respublikasi Qonunlari
2.	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va qarorlari
3.	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari
4.	Idoraviy me'yoriy-huquqiy hujjatlar (vazirliklar, davlat qo'mitalarining buyruqlari, qarorlari)
5.	O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi (1996)
6.	"Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonun (yangi tahrir, 06.05.2014)

7.	"Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida"gi Qonun (yangi tahrir, 2015y.)
8.	"Raqobat to'g'risida"gi Qonun (2012y.)
9.	"Audito'rlik faoliyati to'g'risida"gi Qonun (yangi tahrir, 2000y.)
10.	"Buxgalteriya xisobi to'g'risida"gi Qonun (yangi tahrir, 2016y.)
11.	"Bankrotlik to'g'risida"gi Qonun (yangi tahrir, 2003y.)
12.	"Mas'uliyati cheklangan va qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar to'g'risida"gi Qonun (2001y.)
13.	"Xo'jalik shirkatlari to'g'risida"gi Qonun (2001y.)
14.	"Korporativ boshqaruv kodeksi" (2015y.)

Korporativ boshqaruv kodeksini qabul qilinishi aksiy adorlik jamiyatlarida ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiya qilish, texnik hamda texnologik qayta jihozlash, raqobatdosh mahsulot ishlab chiqarish va uni tashqi bozorga eksport qilish maqsadlarini ko'zlaydi hamda bunda muhim ahamiyat kasb etadi. Kodeksda keltirilgan tavsiyalar bo'yicha aksiyadorlar uchun yozma va elektron murojaatlar yuborish, aksiyadorlarning ulanish manzillari hamda bank rekvizitlari o'zgargani to'g'risidagi axborotni yo'llash orqali ularning aksiyadorlik jamiyati bilan aloqasini soddalashtiradi. Bu ularning huquqlari va qonuniy manfaatlarini, aksiyadorlarning aksiya egalari ulushidan qat'iy nazar, teng huquqlilik asosida boshqaruvda hamda qarorlar qabul qilishda amaliy ishtirok etishni ta'minlashga xizmat qiladi.

Samaradorlik mezonlari sifatida shunday ko'rsatkichlar tanlanishi kerakki, u quyidagi imkoniyatlarga ega bo'lish zarur:

- kutayotgan natijalarni istiqbollashtirish. Kompaniyalar (korporatsiyalar) maqsadiga erishish;

- maqsadga erishishning haqiqiylikini baholash;
- turli variantlar maqsadga erishishini o'zaro taqqoslash.


Buning uchun samaradorlik mezonlari kompaniyalarda hal qilinadigan masalalarning mohiyatini izohlash, asosiylarini aniqlash, korporativ boshqaruvni takomillashtirish yo'llarini belgilash kerak.

Korporativ boshqaruv samaradorligi mezonlari quyidagi talablarga javob berishi zarur:

- kompaniyalar (korporatsiyalar) oldida turgan maqsadlarga mos kelishi;
- kompaniyalar (korporatsiyalar) o'z vazifalarini bajarish borasida, ichki va tashqi holatlar bilan bog'liq bo'lishi;
- to'la va yetarli darajada tashkiliy, texnologik va iqtisodiy axborotlarga ega bo'lishi;
- hamma miqdor va sifat parametrlariga mos kelishi.

Bozor iqtisodiyotini boshqarish samaradorligi va korporativ boshqaruv samaradorligining mezon va ko'rsatkichlari hamohang ravishda rivojlanadi.

Boshqaruv samaradorligi uslubiyating, umuman korporativ boshqaruv samaradorligini aniqlashda ham qo'llanishi mumkin. Ushbu uslubiyat, rossiyalik iqtisodchi olim V.A.Abchuk tomonidan ishlab chiqilgan.



2-rasm. Korporativ boshqaruv samaradorligining mezon va ko'rsatkichlari

Fikrimizcha, bozor iqtisodiyoti sharoitida barcha mulklarning samaradorligi bir mezonga yo'naltirilgan. Bu yuqori darajada foyda olishdir. Ushbu ilmiy konsepsiyadan kelib chiqib, biz uning natijasida foyda turishini asoslab, uni bosh mezon qilib belgilashni taklif etamiz. Ushbu bosh mezon ko'rsatkichlar tizimi bilan bog'lanib korporativ boshqaruvning samaradorligini baholashning bosh mezoni va iqtisodiy ko'rsatkichlar tizimi sifatida ifodalanadi. Iqtisodiy ko'rsatkichlar ichki va tashqiga bo'linadi.

Xulosa va takliflar. Korporativ boshqaruvning paydo bo'lishi va rivojlanishi, tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi va samaradorligi atroflicha o'rganib, quyidagi xulosa va takliflar shakllantirildi:

- Korporativ mulkni himoya qilish, uni rivojlantirish, aksiyadorlar manfaatlarini qo'llab-quvvatlash davlat oldida turgan bosh vazifalardan biri hisoblanadi. Davlatning iqtisodiy sub'ektlar faoliyatiga aralashishi emas, balki korxonalarni inqirozdan asrash, xavfsizligini saqlashda, har qanday xavf-xatarning oldini olishda davlatning o'рни kattaligi isbotlab kelinmoqda.

- Korporativ boshqaruv mexanizmini takomillashtirish uning samaradorligi oshib borishini ta'minlashda ishlab chiqarishni tashkil etish, yangi xo'jalik mexanizmlari asosida korporativ munosabatlarni shakllantirish, uni optimallashtirish, davlatning asosiy tashkiliy-iqtisodiy vazifasi hisoblanadi. Ammo davlat tomonidan korporativ mexanizmlarni takomillashtirish siyosiy omillarga emas, balki iqtisodiy omillarga asoslangan holda olib borilishi zarur.

Korporativ boshqaruvning qonun asosida olib borilishi ular o'rtasidagi korporativ munosabatlarni oqilona tashkil etish, korporativlar institutining rivojlanishi, korporativ ishlab chiqarishning investitsiya holati yaxshilanishi va boshqa tomonlarining o'sishiga olib keladi.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги «Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида»ги ПФ-4947-сонли Фармонининг 1-илоvasи «2017-2021 йилларда

- Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси». www.lex.uz.
2. Функ Я.И., Михалченко В.А., Хвалей В.В, АО. История и теория. –Минск, 1999.- с-272
 3. Михайлов Д.М. эффективное корпоративное управление (на современном этапе развития экономики РФ): учебно-практическое пособие/ Д.М.Михайлов.-М.: КНОРУС, 2010 с.27
 4. Berle A Jr., Means G.C., The modern Corporation and Private Property. New York: Macmillan, 1932.
 5. Report of the Committee on the financial Aspects of Corporate Governance (Cadbury Report). Para. 2.5. URL: www.ecgn.org
 6. Stakeholders-1. Воситачи.2. Компания қатнашчиси, биргаликда эгалик қилувчи.
 7. Дж. К.Ван Хорн Основы управления финансами, - М., Финансы и статистика, 1996 г. с.21.
 8. Росс С., Вестерфидр. Джордан Б. «Основы корпоративных финансов» (перевод с английского) - М., Лаборатория базовых знаний, 2000 г., с.30.
 9. Корпоративное управление: поиск модели. // Экономическая стратегия. 2004, №2.
 10. Башкинсас В.Ю., Делов Д.И., Карелина С.А. Правовое регулирование деятельности акционерных обществ. - М.; 1999.
 11. Карнаухов С. Эффективность корпоративных структур// РИСК 2000 № 1-2 С.4.
 12. Масютин С.А. Корпоративное управление: опыт и проблемы: Монография. –М.: ООО «Финстатинформ», 2003. с-33.
 13. Мазур И. И., Шапиро В. Д., Ольдерогге Н. Г., Шеин В. И. Корпоративный менеджмент Учеб. пособие для студентов, обучающихся по специальности «Менеджмент орг.»; Под общ. ред. И. И. Мазура и В. Д. Шапиро. - 2-е изд., перераб. и доп. - М.: Изд-во «Омега-Л», 2008. - 781 с.
 14. Юлдашев Ш.Ф., Суюнов Д.Х., Хамидулин М.Б. Акциядорлик жамиятларида корпоратив бошқарув. -Т.: Академия, 2005, 13 бет.
 15. Хамидулин М. Корпоратив бошқарув: маълум муаммолар ҳақида батафсилроқ/ Корхонани бошқариш №5(35), 2010. 6-б.
 16. Зайнутдинов Ш.Н., Рахимова Д.Н. Корпоратив бошқарув. - Т.: Академия, 2010, 13 бет.
 17. Нуримбетов Р.И., Пўлатова Н.Р. Бозор муносабатлари шароитида корпоратив бошқарув тушунчасининг моҳияти ва унинг иқтисодиётдаги ўрни// Мустақиллик йилларида Ўзбекистон иқтисодиёти: устувор йўналишлар, муаммолар ва ечимлар. Илмий мақолалар тўплами II қисм Тошкент-2011. ТДИУ.
 18. Экономический словарь. [Электронный ресурс]. Режим доступа: http://abc.informbureau.com/html/oicssenoaaiiue_iaoaieci.html

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 3 (4) – 2024

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).